

AXBOROT XATI

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq sivilizatsiyasi va tarixi fakulteti tomonidan 2023-yilning 28-aprel kuni **“Sharq mamlakatlarining rivojlanish xususiyatlari: tarixi, antropologiyasi va falsafasi”** mavzusida iqtidorli talabalarning ilmiy-amaliy anjumani tashkil qilinmoqda.

Anjumanda Respublika oliy o‘quv yurtlarida bakalavriat va magistratura bosqichida tahsil olayotgan barcha talabalar o‘z ilmiy maqolalari bilan ishtirok etishlari mumkin. Anjumanga taqdim etilayotgan ilmiy maqolalar quyidagi yo‘nalishlarda saralab olinadi:

1. Sharq mamlakatlari tarixi va siyosiy jarayonlari;
2. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi;
3. Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi;
4. Sharq xalqlari antropologiyasi;
5. Sharq falsafasi va madaniyati.

Taqdim etilayotgan maqola va anjuman materiallarini rasmiylashtirish talablari:

1. Anjuman materiallari MS Word 97-2003, 2007, 2010 (RTF) formatida, Times New Roman shriftida, 14 hajm kattalikda, 1,5 intervalda yoziladi.
2. Taqdim etilayotgan maqolalar 5 betdan kam bo‘lmasligi va 7 betdan oshmasligi lozim.
3. Qog‘oz hajmi A4 (210x297 mm), tepadan, pastdan, chapdan, o‘ngdan 2 sm qoldiriladi.
4. Birinchi qatorda o‘rtadan bosh va qalin harflarda mavzuning nomi, 2-qator o‘ng tarafdin muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, 3-qatorda o‘ng tarafdin muallifning ta’lim yo‘nalishi, kursi, telefon raqami va elektron pochta, 4-qatorda o‘ng tarafdin muallif ilmiy rahbarining familiyasi, ismi va otasining ismi, ilmiy lavozimi va unvoni, 5-qatordan matn yoziladi.
5. Qo‘yilgan talablarga javob bermaydigan hamda **ilmiy rahbar taqrizi bo‘lmagan maqolalar** qabul qilinmaydi.
6. Anjumanga taqdim etilgan maqolalar kitob holida chop etiladi. Kitobning nashr xarajatlariga maqolaning har bir sahifasi uchun 10 000 so‘mdan to‘lanadi.

2023-yilning 15-apreliga qadar o‘zbek, rus va ingliz tilida yozilgan ilmiy maqolalar bosma va elektron tarzda taqdim etilishi kerak. Tashkiliy qo‘mita maqolalarni chop etish uchun tanlab olish huquqini o‘z zimmasida qoldiradi.

Anjuman yakuniga ko‘ra eng yaxshi ilmiy maqola mualliflarini aniqlash hamda ishtirokchilarni sertifikat bilan taqdirlash ko‘zda tutilgan.

TDSHU Sharq sivilizatsiyasi va tarixi fakulteti,

Murojaat uchun tel.:

(90) 353-84-00 Odilov Bobur

(93) 547-39-31 Ikramova Iroda

(99) 871-39-19 Yodgorov Sherbek